Shukurova Ruxsora Abdulhofiz qizi

Ilmiy rahbar: f.f.n. PhD M.Ortiqova

Toshkent davlat sharqshunoslik univeristeti talabasi

e-mail: shukuruovaruxsora5956@.com

OGAHIY IJODIGA FORS-TOJIK SHE'RIYATINING TA'SIRI

Annotatsiya: Maqolada XIX asrda Butun Movarounnahrda umum til hisoblangan fors-tojik tilida ijod qilgan adbilar Xusraviy, Ansoriy, Hofiz Sheroziy, Bedil, Navoiy, Qiyomiylar qatorida Ogahiyning ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ogahiy, XIX asr, fors-tojik, tasavvuf, "Ash'ori forsiy".

Muhammad Rizo Ogahiyning ustozi va amakisi, XIX asr Xorazm muhitining rahnamosi Munis Xorazmiy o'zining "Munisul-ushshoq"dagi

Voilyi mulki tariqat gar Nizomiydur manga,

Manzil ma'nig'a Xizr roh Jomiydur manga,

deb boshlanuvchi g'azalida o'ziga adabiy ta'sir o'tkazgan, ustozlik maqomida bo'lgan salaflarini talmeh va ittifoq san'atlaridan mohirona foydalangan holda zikr qiladi. Bular orasida Xusraviy, Ansoriy, Hofiz Sheroziy, Bedil, Navoiy, Qiyomiylar nomini uchratamiz[1]. Ko'rinadiki, Munis ijodiga ta'sir ko'rsatgan ushbu ijodkorlarning ko'pchiligi forsiyzabon shoir va adiblar, qolaversa, zullisonayn ijodkorlardir. Munis tilidan aytilgan ushbu o'ziga xos e'tirofnomani Ogahiy ijodiga ham bemalol tatbiq qilishimiz mumkin. Zero, Ogahiyning o'zbekcha she'larida ham, for-tojik tilidagi ijod namunalarida ham mazkur ijodkorlarning adabiy ta'sirini, ustozlik maqomini kuzatamiz.

[1] Munis Shermuhammad Xorazmiy, Saylanma. Nashrga tayyorlovchi Y.Yusupov. – Toshkent:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti, 1980. – 386 b.

Ogahiy ijodiga fors-tojik adabiyoti vakillarining ta'siri, xususan, mavzular mushtarakligida, timsollar umumiyligida yaqqol ko‘rinadi. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash lozimki, "Ash'ori forisiy"da bayon qilingan mavzularning fors-tojik adabiyoti vakillari ijodidan o‘rin olgan mavzu va g‘oyalar bilan mushtarakligining sababini faqat adabiy ta'sir doirasi bilan cheklash to‘g‘ri emas. Avvalo, bu mavzularning ko‘pchiligi adolat, insonparvarlik, axloqiy komillik kabi umuminsoniy g‘oyalarni ilgari suradi. Ikkinchidan, foniy dunyoni imtihongoh anglash, umrning o‘tkinchiligi, har bir amalning o‘z mukofoti bo‘lishi kabi mavzular butun islomiy adabiyotning bosh mavzularidan hisoblanadi. Uchunchidan, ayrim mavzular, jumladan yaxshilik qilgangagina emas, yomonlik qilganga ham yaxshilik qilish, o‘ta kechirimli bo‘lish kabi g‘oyalar tasavvufiy adabiyotda keng targ‘ib qilingan. Quyida Ogahiyning forsiy merosiga mansub mavzu va g‘oyalarning forsiy adabiyoti klassiklari ijodi bilan mushtarakligiga oid ayrim mulohazalarni bayon qilamiz.

Odil shox g‘oyasi Ogahiyning forsiy ijodida muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham "Ta'rixi vafoti Olloqulixon va chulusi Rahmonqulixon"da o‘z otasi o‘rniga taxtga o‘tirayotgan Rahmonqulixonga yana bir muhim nasihatni "Tajdurki, qulox, qadashga unga loyiqki duri xushob" keldi"-" Zotash ba qulohi podshohiy, Shoistan durri xushob omad" misralari bilan ifodalaydi. Tojni qulox deb bilish, hamisha haq subhanhu va taolo xizmatida darvishlar yanglig‘ xizmatda bo‘lish , xalq manfaati uchun xalqqa, xalq roziligi uchun Xaqqa butun hayotini baxsh etishning naqadar hayrli ekanligini ta'kidlash bilan shoir davlat sohiblarining burchlarini ularga izchillik bilan eslatib turadi. Ogahiy ham Navoiy hazratlari kabi shohlarni ayni paytda "kishvari faqr shohlari" bo‘lishini orzu qiladi. Shuning uchun ham Navoiy tomonidan "shohlar darvishi-yu, darvishlar shohi" bo‘lgan "suvrati shoj, siyrati darvish"[2] Husayn Bayqaro kabi odil shohni orzu qiladi. Ogahiy ayni paytda siyratda darvesh bo‘lish suratda shohlikdan a'loligini o‘z davri hukumronligida

[2] Navoiy.Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. Birinchi jild. – Toshklent: Fan, 1987. – B. 36.

Bizki, bukun olam aro kishvari farq hukumdorlariga

Boshimiz uzra oximiz shu'lasidur kulohimiz

– baytlari orqali namoyish etganga o'xshaydi[3].

Ogahiy forsiy merosidagi yana bir jihat umrning o'tkinchiligi ta'kidlash orqali insonparvarlik g'oyalarini yanada keng targ'ib qilishdir. Xususan, shohlarning yoki boshqa davlat arboblarining vafoti munosabati bilan bitilgan tarixlarda bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ogahiy ijodiga fors-tojik adabiyotining ta'sirini belgilovchi omillardan yana biri obrazlar mushtarakligidir. Shoirning forsiy merosidagi obrazlarni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: 1. Talmeh hosil qiluvchi an'anaviy tarixiy, afsonaviy va mifologik obrazlar. 2. Ramziy obrazlar. Quyida ularning ayrimlari xususida so'z yuritamiz.

Yusuf obrazi. Ogahiyning o'zbekcha she'riyatida Yusuf obrazi maxsus o'rganilgan. Ogahiy o'z an'anasiga sodiq qolib, mumtoz adabiyotda go'zallik timsoli bo'lgan bu obrazdan ham o'zining muhim ijtimoiy fikrlarini ifodalash uchun foydalangan:

Garchi bicho'y chilvai mqsad, zamirat sof kun,

Yusufi xurshedro boshad hamesha chox, subh[4].

Tarjimasi: Agar maqsading amalga oshishni istasang, hamisha o'zligingni pok tut, (shuning uchun) Yusufga quduq ham hamisha tong bo'ladi.

[3] Ogahiy. Olti jildlik. Birinchi jild. – Toshkent:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti, 1971. – B.214

[4] Tavizul – oshiqin. – B. 490.

Ko‘rinadiki, baytda Yusuf alayhissalom nafaqat go‘zallik, balki poklik timsoli sifatida ham zikr qilingan. Ushbu mazmunni fors adabiyotining ko‘plab vakillari ijodida ham kuzatamiz.

Xulosa sifatida shuni bayon qilishimiz mumkinki: fors-tojik she’riyati jahon xalqining eng qadimiy va ilg‘or adabiyotlaridan biri bo‘lib, uning o‘zbek adabiyotiga ta’siri boshqa xalqlarga nisbatan kuchlidir va ikkala xalqning mushtarak jihatlari ko‘pligi hamda boshqa ko‘plab faktorlar bilan izohlanadi. Ogahiy tarbiya topgan adabiy muhitda fors adabiyotining ilg‘or vakillari, jumladan, Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiziy, Sa’diy Sheroziy, Anvariy, Sanoiylar ta’siri kuchli bo‘lib, shoirning o‘zbekcha she’riyatida ham, forsiy lirikasida ham ularning har tomonlama ta’siri seziladi.

- Ogahiy ijodiga fors she’riyatining ta’siri obrazlar mushtarakligi, g‘oyalar umumiyligi, badiiy ifoda yorqinligi kabi jihatlarda yaqqolroq ko‘rinadi;

-Ogahiy ijodiga for adabiyotini ta’siri nafaqat uning forsiy she’riyati, balki o‘zbekcha she’rlari doirasida ham alohida o‘rganishga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. ─ Toshkent: O‘zFAN, 1961.
2. Munirov Q. Ogahiy. Ilmiy va adabiy faoliyati─ Toshkent: O‘zFAN, 1959.
3. Nosirov O., Jamolov S., Ziyovuddinov M. O‘zbek klassik she’riyati janrlari. –T.: O‘qituvchi, 1979, 154-166-betlar; Haqqulov I. Ruboiy – ma’nolar bahrida. Kitobda: A’zamov A., Haqqulov I. Mas’ul so‘z. – T.: 1987, 171-188-betlar; Ochilov E. Muborak sarchashmalar. – Toshkent: O‘qituvchi. 1997.
4. Ogahiy M. Asarlar. 4-jildlik. 1-jild. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1971.